Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta'minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o'g'li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o'g'li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	
O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	



Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	



Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o'g'li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo'llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o'z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	



Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo'llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamiy Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavyonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orzbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING XIZMAT TURLARINING HUQUQIY ASOSLARI



Umurzoqova Adiba Ochilovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank ishi” kafedrası katta o‘qituvchisi
E-mail: umurzakovaadiba@gmail.com
ORCID:0009-0007-1357-8521

Annotatsiya: Maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda banklar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning raqamlashtirilishi jarayonida vujudga kelayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, elektron tijorat, elektron imzo va ochiq banking platformalarining huquqiy mexanizmlari batafsil yoritilgan. Xalqaro tajriba tahlili asosida O‘zbekiston Respublikasida mavjud bo‘lgan huquqiy bazaning holati baholanib, uning takomillashtirish istiqbollari va zaruriy chora-tadbirlari tavsiya etilgan. Ushbu maqola bank tizimida raqamli transformatsiyaning huquqiy infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, tijorat banklari, raqamli xizmatlar, huquqiy asoslar, elektron tijorat, elektron imzo, ochiq banking, fintech, ma’lumotlar himoyasi.

Abstract: This article analyzes the legal foundations of service types offered by commercial banks within the framework of the digital economy. The study focuses on the regulatory and legal documents required for the digitalization of banking services, as well as the legal mechanisms governing electronic commerce, digital signatures, and open banking platforms. Based on the analysis of international practices, the state of the legal framework in Uzbekistan is assessed, and recommendations for its improvement and necessary measures are provided. The article contributes to the development of scientifically grounded proposals for enhancing the legal infrastructure of digital transformation in the banking sector.

Key words: digital economy, commercial banks, digital services, legal foundations, electronic commerce, digital signature, open banking, fintech, data protection.

Аннотация: В статье проведен анализ правовых основ видов услуг коммерческих банков в условиях цифровой экономики. Исследование охватывает нормативно-правовые акты, регулирующие процесс цифровизации банковских услуг, а также правовые механизмы электронной коммерции, электронной подписи и открытого банкинга. На основе анализа международного опыта оценивается текущее состояние правовой базы в Узбекистане, предложены направления ее совершенствования и необходимые меры. Статья направлена на разработку научно обоснованных рекомендаций по развитию правовой инфраструктуры цифровой трансформации в банковском секторе.

Ключевые слова: цифровая экономика, коммерческие банки, цифровые услуги, правовые основы, электронная коммерция, электронная подпись, открытый банкинг, финтех, защита данных.



KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar butun dunyo miqyosida iqtisodiyotning barcha sohalariga, xususan, bank-moliya tizimiga chuqur kirib bormoqda. Global miqyosda ro'y berayotgan raqamli transformatsiya jarayoni an'anaviy bank xizmatlarining mazmuni va shaklini tubdan o'zgartirib, tijorat banklarini o'z faoliyatini qayta formatlashga undamoqda. Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachilar, balki innovatsion raqamli platformalar sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bank xizmatlarini huquqiy tartibga solish va ularni taqdim etish bo'yicha metodologik yondashuvlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli¹ Farmoni doirasida barcha sohalarida, jumladan, bank sektorida raqamli xizmatlar turlarini kengaytirish, ularning sifati va mijozlar uchun qulayligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, raqamli xizmatlarning tez sur'atlarda rivojlanishi ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash, normativ-huquqiy hujjatlarni zamon talablari darajasiga moslashtirish va bank xizmatlari metodologiyasini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ayni paytda tijorat banklari tomonidan raqamli xizmatlarni joriy etish jarayonida bir qator dolzarb masalalar, jumladan, masofaviy identifikatsiya va autentifikatsiya, to'lov tizimlarining ishonchligi, ochiq banking imkoniyatlari, ma'lumotlar himoyasi va kiberxavfsizlik kabi talablarni to'liq qamrab olgan huquqiy baza va aniq metodologik yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Bu masalalarni o'z vaqtida va samarali hal etish banklarning raqobatbardoshligini oshirish, mijozlarga xavfsiz va qulay xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash hamda butun moliyaviy tizimning barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini shakllantirish va rivojlantirishga oid huquqiy hamda metodologik asoslar tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasidagi mavjud imkoniyatlar va mavjud to'siqlar xalqaro tajribalar bilan taqqoslanib, bank xizmatlarini yanada takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari aniqlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Xalqaro miqyosda raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha qator yirik ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Arner D.W., Barberis J. va Buckley R.P. o'zlarining "The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm?" asarida raqamli moliya sektorining rivojlanishi va uning bank tizimiga ta'siri haqida bahs yuritadilar. Ular PSD2 va Open Banking siyosatining bank xizmatlari ko'rsatish metodologiyasini tubdan o'zgartirganini ko'rsatgan.

Pousttchi P. esa mobil banking rivoji va undan kelib chiqadigan regulyatsiya masalalarini chuqur tahlil qilgan. U raqamli to'lov tizimlarining mijozlarga xizmat ko'rsatishda qulaylik va xavfsizlikni oshirishdagi rolini alohida ta'kidlagan. Gozman C. va Will A. raqamli transformatsiya jarayonida mijozga yo'naltirilgan strategik yondashuvlarning ahamiyatiga urg'u berib, banklar raqamli xizmatlarni ishlab chiqishda foydalanuvchi tajribasi va innovatsion texnologiyalar uyg'unligini ta'minlashi zarurligini qayd etgan.

Schindler J.W. fintech va moliyaviy innovatsiyalar o'sishi ortidan yuzaga kelayotgan yangi huquqiy va metodologik chaqiriqlarni tahlil qilgan va ularning bank sektoridagi an'anaviy regulyator modellarga ta'sirini ko'rsatgan.

Xalqaro olimlar raqamli bank xizmatlarining rivojlanishini bank faoliyatining to'liq transformatsiyasi sifatida baholab, bu jarayonda huquqiy bazani moslashtirish va metodologik yangiliklarni joriy etishni zarur shart sifatida ko'rsatmoqda. Shuningdek, ular kiberxavfsizlik va mijoz ma'lumotlarini himoya qilishni zamonaviy bank xizmatlarining ajralmas elementi sifatida ta'kidlamokda.

O'zbekiston olimlari ham tijorat banklarining raqamli xizmat turlarini rivojlantirish va ularning huquqiy-metodologik asoslarini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda.

Sharofova M.S. o'z tadqiqotida raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari xizmatlarining diversifikatsiyasi va innovatsion xizmatlar joriy etilishining dolzarbligini asoslagan. Uning fikriga ko'ra, raqamli xizmatlarni joriy etishda huquqiy bazaning mustahkam bo'lishi va masofaviy xizmat ko'rsatish standartlarining aniqligi bank tizimi rivojida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Maxmudov O. raqamli transformatsiya jarayonida bank-moliya sohasining raqobatbardoshligini oshirish uchun normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni faol integratsiya qilish zarurligini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



ta'kidlagan. U, shuningdek, fintech kompaniyalar bilan hamkorlik qilish uchun yengillashtirilgan regulyator rejimlar ishlab chiqishni taklif etgan.

Xakimov S. esa bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida sun'iy intellekt, Big Data va blockchain kabi texnologiyalarning huquqiy jihatdan tartibga solinmagan sohalariga e'tibor qaratib, raqamli xizmatlarning kiberxavfsizlik asoslari bo'yicha ham aniq normativ hujjatlar qabul qilinishini taklif qilgan.

O'zbekiston olimlari raqamli bank xizmatlarining rivojlanishini huquqiy asoslarning takomillashuvi va zamonaviy metodologiyalar bilan chambarchas bog'liq holda ko'rib chiqib, texnologik innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishda huquqiy va metodologik mustahkamlikni asosiy shart sifatida belgilagan.

TADQIQOT METADALOGIYASI

Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy va metodologik asoslarini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Bunda ilmiy-nazariy tahlil usulidan foydalanilib, mavzuga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar, normativ-me'yoriy bazalar hamda ilg'or tajribalar o'rganildi. Xususan, O'zbekiston va rivojlangan davlatlar, jumladan Yevropa Ittifoqi, Singapur va AQSh tajribasi asosida raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishda huquqiy va metodologik asoslarning shakllanish tendensiyalari tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil (komparativ yondashuv) usuli orqali tijorat banklarining raqamli xizmat turlarini tartibga soluvchi huquqiy bazalar va metodologik yondashuvlar O'zbekiston va rivojlangan davlatlar misolida qiyoslab baholandi. Tadqiqotda empirik ma'lumotlardan ham keng foydalanilib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik hisobotlari, tijorat banklarining ochiq yillik ma'lumotlari, shuningdek, Jahon banki va Basel Committee kabi xalqaro tashkilotlarning so'nggi tavsiyalari tahlil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida tijorat banklarining xizmat turlarida tub o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham bank xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda, biroq raqamli xizmatlarning huquqiy va metodologik asoslari to'liq shakllanmaganligi ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarini tartibga soluvchi amaldagi huquqiy baza².

№	Huquqiy hujjat nomi	Asosiy mazmuni va tartibga olinadigan soha	Qabul qilingan yil
1	«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonun	Bank faoliyati, masofaviy xizmatlar va moliyaviy vositachilik	05.11.2019 yildagi O'RQ-580-son
2	«Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonun	Elektron savdo operatsiyalari va elektron shartnomalar	29.09.2022 yildagi O'RQ-792-son
3	«Elektron raqamli imzo to'g'risida»gi Qonun	Elektron raqamli imzo va masofaviy autentifikatsiya	12.10.2022 yildagi O'RQ-793-son
4	«Elektron hujjat aylanishi to'g'risida»gi Qonun	Elektron hujjatlar va ularning yuridik kuchi	29.04.2004 yildagi 611-II-son
6	«Raqamli O'zbekiston – 2030» strategiyasi	Raqamli transformatsiyani rivojlantirish umumiy strategiyasi	05.10.2020 yildagi PF-6079-son
7	Markaziy bankning bank xizmatlarini masofaviy ko'rsatish qoidalari	Masofaviy bank xizmatlarining tartibi va texnik talablari	Har yili yangilanadi (so'nggi versiya – 2023-yil)

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida tijorat banklarining xizmat turlarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. O'zbekiston Respublikasida ham bank xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, raqamli xizmatlarning huquqiy va metodologik asoslari to'liq shakllanmaganligi ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-580-sonli³ Qonun bank faoliyatining raqamli shaklini rasman tan olib, banklarga masofaviy xizmat ko'rsatish huquqini bergan bo'lsa-da, raqamli identifikatsiya va autentifikatsiya jarayonlari yetarlicha aniq reglamentlashtirilmagan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-fevraldagi «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'RQ-792-sonli⁴ Qonun elektron savdo operatsiyalari va elektron shartnomalarni

2 Lex.uz- O'zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasining veb-sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

3 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-580-sonli Qonun: <https://lex.uz/docs/-4581969>

4 O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-fevraldagi «Elektron tijorat to'g'risida»gi O'RQ-792-sonli Qonun: <https://lex.uz/docs/-6213382>



yuridik jihatdan tan olib, bank xizmatlarini (kredit, omonat, to'lovlar) elektron shaklda ko'rsatish imkonini bergan, biroq elektron tijoratda xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlari hali kuchli darajada mustahkamlanmagan. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'RQ-793-son⁵ Qonun masofaviy autentifikatsiya va shartnomalar tuzish imkoniyatlarini taqdim etib, banklarga masofadan turib hisob ochish, kredit rasmiylashtirish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish imkonini bergan bo'lsa-da, elektron raqamli imzo tizimining texnik va texnologik integratsiyasi banklar o'rtasida bir xilda emas va umumiy standartlarning yetarlicha ishlab chiqilmagani muammoli bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 611-II-sonli⁶ Qonun elektron hujjatlar va hujjat aylanishining yuridik kuchini tasdiqlagan bo'lib, banklarda ichki jarayonlar (ichki hujjatlar, shartnomalar, hisob-kitoblar)ni raqamli tarzda yuritish imkonini bergan, biroq elektron hujjat arxiv tizimining huquqiy va texnik standartlari batafsil belgilab berilmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli⁷ Farmoni raqamli moliyaviy xizmatlar ko'rsatishni davlat darajasida strategik maqsad sifatida belgilab, banklarda raqamli xizmatlarni kengaytirish uchun resurs va infratuzilma investitsiyalarini oshirishga turtki bo'lgan bo'lsa-da, strategiya umumiy maqsadlarni belgilash bilan cheklangan bo'lib, konkret normativ va texnik mexanizmlarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlarining rivojlanishi global moliyaviy tizimda asosiy transformatsion jarayonlardan biri bo'lib, turli mamlakatlar bu sohada o'ziga xos huquqiy va institutsional yondashuvlarni shakllantirgan. Xususan, Yevropa Ittifoqida Payment Services Directive 2 (PSD2) ochiq bankingni majburiy joriy etgan va General Data Protection Regulation (GDPR) shaxsiy ma'lumotlar himoyasini yuqori darajada tartibga solgan bo'lib, natijada banklar va fintech kompaniyalari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi ochiq va standartlashtirilgan hamda raqamli to'lov xizmatlari va uchinchi tomon provayderlar (TPP) faoliyati keng rivojlangan. Biroq O'zbekiston bilan farqlanishi shundaki, mamlakatimizda hali ochiq banking huquqiy asoslari mavjud emas va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi to'g'risidagi normativ baza Yevropa darajasida emas. AQShda esa Office of the Comptroller of the Currency (OCC) va Consumer Financial Protection Bureau (CFPB) regulatsiyasi asosida fintech kompaniyalar va raqamli banklar uchun maxsus litsenziyalash tizimi joriy etilgan bo'lib, banklarning innovatsion xizmatlar uchun "sandbox" dasturlari mavjud, natijada raqamli xizmatlarning innovatsion rivoji va mijozlar ehtiyojiga mos texnologik yechimlar keng qo'llanilmoqda hamda fintech kompaniyalar bank tizimining tarkibiy qismini tashkil etmoqda. O'zbekistonda esa fintech kompaniyalar uchun maxsus litsenziyalash va "sandbox" dasturlari hali keng joriy etilmagan. Singapurda Monetary Authority of Singapore (MAS) tomonidan fintech hamda raqamli banklar uchun raqobatbardosh va qulay regulator muhiti yaratilgan bo'lib, elektron to'lov xizmatlari to'g'risidagi maxsus qonun (Payment Services Act) qabul qilingan va natijada Grab Financial Group, Sea Group kabi raqamli banklar faoliyat yuritmoqda, bank xizmatlari esa mobil ilovalar asosida to'liq raqamlashtirilgan. Biroq O'zbekistonda raqamli banklar uchun maxsus huquqiy maqom mavjud emas, banklar ko'proq an'anaviy modelda raqamlashtirilmoqda (2-jadval).

2-jadval. Umumlashtirilgan taqqoslovchi jadval.

Ko'rsatkich	O'zbekiston	Yevropa Ittifoqi	AQSh	Singapur
Ochiq banking	Yo'q	PSD2 asosida bor	Cheklangan	Bor
Ma'lumotlar himoyasi	Cheklangan	GDPR asosida kuchli	Rivojlangan	Kuchli
Fintech hamkorlik	Kam rivojlangan	Faol	Juda faol	Juda faol
Maxsus fintech litsenziyalari	Mavjud emas	Bor	Bor	Bor
Sandbox rejimi	Cheklangan	Bor	Bor	Bor
Raqamli banklar maqomi	An'anaviy banklar asosida	Mustaqil raqamli banklar	Mustaqil raqamli banklar	Mustaqil raqamli banklar

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun, eng avvalo, raqamli to'lovlar va ochiq banking xizmatlarini tartibga soluvchi to'liq va aniq huquqiy asoslarni yaratish, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimini xalqaro standartlar darajasida kuchaytirish zarur.


5 O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'RQ-793-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-6234904>

6 O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 611-II-sonli Qonun: <https://lex.uz/ru/docs/-165079>

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



Bundan tashqari, fintech kompaniyalari va tijorat banklari o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun mos va qulay regulyator mexanizmlarini joriy etish, innovatsion moliyaviy xizmatlar uchun esa tartibga soluvchi tajriba maydonlari ("sandbox") tashkil etish dolzarb hisoblanadi, chunki bu yondashuvlar raqamli bank xizmatlari ekotizimining barqaror, xavfsiz va samarali rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. 2020–2025 yillar davomida to'lov xizmatlarining rivojlanish dinamikasi.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, 2020–2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida raqamli to'lov xizmatlari sezilarli darajada kengaygan bo'lib, xususan, QR to'lovlar soni 2020-yildagi 12 milliondan 2025-yilda 75 millionga yetib, 6 barobarga o'sgan. Elektron raqamli imzo foydalanuvchilari esa 2020-yildagi 1,5 milliondan 2025-yilga kelib 7,8 millionga yetgan bo'lib, bu esa bank xizmatlarida raqamli identifikatsiya imkoniyatlarining kengayganidan dalolat bermoqda. Shu bilan birga, raqamli hamyonlar soni ham izchil o'sib, 2025-yilda 36 million foydalanuvchiga yetgan va bu masofaviy to'lovlar hamda fintech xizmatlarining keng ommalashganini ko'rsatmoqda. Yuqoridagi o'sish tendensiyalari O'zbekiston tijorat banklarining raqamli xizmatlarini xalqaro tajribalar asosida yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi va bu jarayonda mavjud huquqiy bazani kengaytirish, uni zamonaviylashtirish hamda ilg'or regulyator yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini rivojlantirish masalasi O'zbekiston moliya sektorida tub islohotlar va transformatsiyalarni talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan huquqiy bazalar – O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli⁸ Qonun, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-fevraldagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-sonli⁹ Qonun, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'RQ-793-sonli¹⁰ Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli¹¹ Farmoni tijorat banklari uchun raqamli xizmatlarni joriy qilish va rivojlantirishda asosiy yuridik poydevorni yaratib berdi. Amaldagi huquqiy me'yorlar banklarga mobil banking, internet banking, masofaviy hisob ochish, onlayn kreditlash va elektron to'lov xizmatlarini joriy etish imkonini bergan bo'lib, raqamli xizmatlardan foydalanuvchi mijozlar sonining 2020–2025-yillar oralig'ida 6 barobarga o'sishi ushbu sohada olib borilayotgan siyosat va islohotlarning ijobiy natijalarini ko'rsatadi. Biroq o'tkazilgan tahlillar O'zbekistonda raqamli

8 O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonun: <https://lex.uz/docs/-4581969>

9 O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 2-fevraldagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-sonli Qonun: <https://lex.uz/docs/-6213382>

10 O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'RQ-793-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-6234904>

11 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



bank xizmatlarining huquqiy va metodologik asoslari hali to'liq mukammallashtirilmaganligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ochiq banking (Open API), fintech kompaniyalar bilan o'zaro hamkorlik, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, kiberxavfsizlik, raqamli identifikatsiya va autentifikatsiya tizimlari sohalarida aniq va mustahkam huquqiy me'yorlarning yetishmasligi kuzatilmoqda. Xalqaro tajriba, xususan, Yevropa Ittifoqi (PSD2 va GDPR), AQSh va Singapur amaliyoti shuni ko'rsatadiki, raqamli bank xizmatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ochiq va shaffof ma'lumotlar almashinuvi platformalarini yaratish, mijozlarning shaxsiy ma'lumotlarini yuqori darajada himoya qilish, fintech kompaniyalar uchun maxsus litsenziyalash tizimlarini joriy etish va raqamli moliyaviy xizmatlar uchun eksperimental maydonlar ("sandbox") tashkil qilish zarur. O'zbekiston tijorat banklarining raqamli xizmatlar sohasida raqobatbardosh bo'lishi va global moliyaviy bozorga integratsiyalashuvi uchun esa mavjud huquqiy bazani zamonaviylashtirish va kengaytirish, raqamli transformatsiyani qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy va texnologik infratuzilmani rivojlantirish hamda mijozlarning raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq risklar, xususan, kiberxavfsizlik tahdidlari, moliyaviy ma'lumotlar suiste'mol qilinishi va texnologik monopoliyalarning shakllanishi kabi xavflarni minimallashtirish uchun ham huquqiy va institutsional choralarni kuchaytirish lozim (3-jadval).

3-jadval. Muammo – Tavsiya – Natija.

Muammo	Tavsiya	Kutilayotgan natija
Ochiq banking (Open API) huquqiy asoslari mavjud emas	PSD2 tajribasiga asoslangan qonunchilik ishlab chiqish	Banklar va fintech kompaniyalar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yiladi
Fintech kompaniyalarning huquqiy maqomi aniq emas	Maxsus fintech litsenziyalarini joriy etish	Bozorda innovatsion xizmatlar ko'payadi, raqobat ortadi
Kiberxavfsizlik me'yorlari bo'yicha yagona regulatsiya yo'q	Banklararo minimal xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish	Mijoz ishonchi oshadi, moliyaviy tizimning barqarorligi kuchayadi
Raqamli identifikatsiya jarayonlari turlicha	Biometrik va E-imzoni integratsiyalovchi yagona platforma yaratish	Masofaviy xizmatlar ko'lami oshadi, firibgarlik kamayadi

Umuman olganda, O'zbekiston bank tizimining raqamli transformatsiyasi nafaqat texnologik yangilanish, balki kompleks huquqiy va metodologik takomillashtirishni talab qiladigan strategik jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati tijorat banklarining raqamli xizmatlar ko'rsatishdagi ishonchligi, innovatsion yondashuvi va mijozlarga qulaylik yaratishga qaratilgan izchil siyosatiga bog'liq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. PF-6079-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-sonli Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-oktabrdagi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi O'RQ-793-sonli Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 29-apreldagi "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi 611-II-sonli Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-sonli Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yilgi Tijorat banklari uchun masofaviy xizmat ko'rsatish qoidalari. T.: Markaziy bank rasmiy veb-sayti.
8. Sharofova M.S. (2023). Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida masofaviy xizmatlarni takomillashtirish. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar elektron jurnali.
9. Maxmudov O. (2023). Bank tizimining raqamli innovatsion rivojlanish istiqbollari. O'zbekiston iqtisodiy axborotnoma jurnali.
10. Hakimov S. (2022). Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy etish va xizmatlar sifati oshirish yo'llari. Bank va moliya jurnali.
11. Pousttchi P. (2017). Mobile Banking: Concept and Consequences. International Journal of Bank Marketing, 35(7), 1012–1023.
12. Gozman C., Will A. (2018). Digital Transformation in Financial Services: The Need for Customer-Centric Business Models. Journal of Business Research, 88, 386–390.
13. Arner D.W., Barberis J., Buckley R.P. (2017). The Evolution of Fintech: A New Post-Crisis Paradigm? Georgetown Journal of International Law, 47(4), 1271–1319.
14. Schindler J.W. (2019). FinTech and Financial Innovation: Drivers and Depth. Journal of Financial Perspectives, 6(3).



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
